Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to'plami

Ta’lim sifatini oshirishda innovatsiyalarning ahamiyati

Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna, Andijon mashinasozlik instituti.Katta o‘qituvchi
Jalilov Nasibillo G ‘ulomidin o‘g‘li, Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Davlatimiz bugungi kunda intellektual salohiyatli avloddan O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori bo‘lishdek muhim va istiqbolli ezgu-niyatlar qilmoqda. Maqolada shu niyatlarni amalga oshirishda olib borilgan ishlar va istiqbolli rejalar haqida to‘xtalib o‘tilgan.Ta’lim sifatini oshirishda intellektual salohiyatning o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Raqamli iqtisodiyot,innovatsiya,intelektual salohiyat,inson kapitali,

Hozirgi kunda dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g‘oyalar, yuqori texnologiyalar shiddatli va barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevori hisoblanadi. Jahonning tobora ko‘proq mamlakatlari axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan, "axborotlashgan jamiyat", "bilimlar iqtisodiyoti", "raqamli iqtisodiyot" bunyod etishga qaratilgan rivojlanish modelini tanlayotgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga taqdim etgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, "Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz".[1]

Har qaysi davlat va xalq avvalo intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratli ekanidan kelib chiqib, O‘zbekistonda 2020 yil “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb e’lon qilindi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni xalq manfaatlari yo‘lida izchil davom ettirish maqsadida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da [2] amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Dastur o‘z mohiyatiga ko‘ra keyingi yillarda yurtimizda ilm-fan va ma’rifat sohalarini rivojlantirish, yosh avlodni chuqur bilimli, madaniyatli va yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish borasida bir necha yo‘nalishda olib borilayotgan tizimli ishlarni tubdan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratildi va amalga oshirildi.

Bugungi kunda aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Shu bois "kreativ jamiyat" barpo etish, yuksak intellektual salohiyatli va ilm-fanning aniq sohalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan kreativ fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifalarimiz sirasiga kiradi. Butun ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar doirasida barcha fuqarolarni keng qamrovli va sifatli ta’lim bilan ta’minlash, har bir insonning umri davomida bilim olish imkoniyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi say-harakatlar zamirida ham xuddi shu ezgu intilishlarimiz o‘z mujassamini topgan.

Barkamol avlod tarbiyasining qayd etilgan ilmiy asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa ta’limni boshqarishda istiqbolli natijalarni qo‘lga kiritish imkonini

Published: 10.11.2023

Cite this article: Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna, Jalilov Nasibillo G‘ulomidin o‘g‘li (2023). Ta’lim sifatini oshirishda innovatsiyalarning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/528

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

beradi va eng asosiy «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», degan ezgu niyatlarimizning og‘ishmay amalga oshishiga fundamental asos bo‘ladi.

Oliy ta’lim tizimida ham tubdan takomillashtirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda va yangilanmoqda, ular zamonaviy ilmiy-o‘quv laboratoriyalari va AKT vositalari bilan jihozlanmoqda. Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar, xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tatbiq etilmoqda.

Oliy ta’lim qamrovi darajasini 50 foizdan ham oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda, jumladan, oliy ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirish, sirtqi va kechki ta’lim shakllarini tiklash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ilm-fanning rolini kuchaytirish, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, ilmiy faoliyat va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar barcha sohalarda etakchi o‘rinni egalladi. Bu barqaror taraqqiyotga, har tomonlama yuksalishga erishishning zarur shartidir.

Xulosa qilib aytganda, Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarida amalga oshirilayotgan salmoqli va ko‘lamdor ishlar bugungi kunda jahonning etakchi davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish masalalariga birinchi galdagi vazifa sifatida qaralayotganidan dalolat beradi.

Zero, bu – mamlakatimiz va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishning garovi. Bu – O‘zbekistonning kuch-qudrati va salohiyatini mustahkamlash, Vatanimizning yanada gullab-yashnashi va xalqimiz farovon yashashining hal qiluvchi omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).

Sun’iy intellekt konseptsiyasining tuzilishi

Andijon mashinasozlik instituti stajor o‘qituvchisi Boymatov Mexrojiddin No‘monjon o‘g‘li

Anotatsiya: Mazkur maqolada Sun’iy intelektning kelib chiqishi uning dastlabki ta’riflari, sun’iy intelektga oid atamalarning tariflari va sun’iy intelekt konseptsiyasining tuzilishi haqida

Kalit so‘zlar: sun’iy intelekt, konseptsiya, ekspert tizim, saqlash, sifat, ta`lim, jarayon, algoritm.

Abstract: In this article, the origin of artificial intelligence, its initial definitions, tariffs of terms related to artificial intelligence, and the structure of the concept of artificial intelligence are discussed.

Key words: artificial intelligence, concept, expert system, storage, quality, education, process, algorithm.

Аннотация: В данной статье обсуждается происхождение искусственного интеллекта, его первоначальные определения, тарифы терминов, связанных с искусственным интеллектом, а также структура понятия искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, концепция, экспертная система, хранилище, качество, образование, процесс, алгоритм.

Sun'iy intellekt (ai, english artificial intelligence, AI) - bu aqlli mashinalarni, ayniqsa, aqlli kompyuter dasturlarini yaratish fan va texnologiyasi. AI inson intellektini tushunish uchun kompyuterlardan foydalanishga o'xshash vazifa bilan bog'liq, ammo biologik jihatdan ishonchli usullar bilan cheklanib qolmaydi.

Sun'iy super intellekt (SSI) gipotetik sun'iy intellekt bo'lib, u nafaqat insonning maksimal qobiliyatlarini takrorlay oladi, balki undan ham oshib ketadi. Asiga ishonuvchilar, u insonni o'z irodasiga bo'ysundirish uchun uning fikrlari va his-tuyg'ulariga kirib borish qudratiga ega bo'lishiga ishonishadi.

Bundan tashqari, gipotetik kuchli yoki umumiy ai (sun'iy umumiy intellekt, agi) asoslilik nuqtai nazaridan asidan bir pog'ona pastroq bo'lib, ushbu turdagi ai tarafdorlari o'z e'tiqodlarida hech bo'lmaganda ishlashga qodir bo'lgan mashinalarni yaratish imkoniyati bilan cheklangan. Shaxs bilan bir xil harakatlar.

Zaif yoki tor SI (sun'iy tor intellekt, STI) sizga mashinalarning xatti-harakatlarida aqlning zaif maslahatlarini ko'rish imkonini beradi (shuning uchun u zaif deb ataladi). U faqat qat'iy belgilangan tor doiradagi ilovalarni ishlatish uchun mo'ljallangan (shuning uchun u tor deb ataladi). STI holatida, inson nazorati ostida bo'lmagan avtonom xatti-harakatlar yoki o'z-o'zini rivojlantirish mumkin emas. STI